



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 21-oktabr, shanba,
125 (23.846)-son

**KUN
HIKMATI**

Iqtidorning
ikki qanoti
bor:
ishtiyoq va
sabr

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz

https://www.facebook.com/zarnews.uz

@zarnews_uz

http://zarnews.uz

DEPUTATLAR AXBOROTLARDAN QONIQQIMI?

20-oktabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining to'qson birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri S.Usmonov boshqardi.

Dastlab Prezident topshirig'iga asosan viloyatda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish bo'yicha Respublika ishchi guruhining xulosalari deputatlar tomonidan ma'lumot uchun qabul qilindi.

Shundan so'ng viloyat ma'muriy sudi raisining joriy yil 9 oy davomida odil sudlovni amalga oshirish borasidagi ishlar yuzasidan axboroti tinglandi.

- Viloyat hamda tumanlararo ma'muriy sudlar tomonidan 9 oyda ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 979 ta ma'muriy ish ko'rib tamomlandi, - dedi viloyat ma'muriy sudi raisi T.Fayziyev. - Shundan 464 tasi qanoatlantirildi, 320 tasi rad qilindi, 93 tasi ish yuritishdan tugatildi, 102 tasi ko'rmasdan qoldirildi.

Deputatlar davlat idoralaridagi yuridik xizmatlar faoliyatining sustligi, ma'muriy sudlarning aholi huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlariga e'tiborsiz munosabatda bo'layotganini tanqid qildi.

Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi boshlig'i S.Jabborovning Prezidentimizning "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan hisoboti deputatlarning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan viloyat transport boshqarmasi boshlig'i A.Ashurovning hisoboti ham bir nechta savollarni yuzaga chiqardi.

- Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish bo'yicha zarur choralarni ko'rgan holda mutasaddi tashkilotlar bilan tizimli ishlar olib borilishi zarur, - dedi A.Ashurov. - IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan shaharning Mirzo Ulug'bek, Spitamenshoh, Namozgoh, Sadridin Ayniy, Shabod, Beruniy, Universitet xiyoboni, Motrid, Panjankent, M-378 avtomobil yo'lining Toyloq markazigacha bo'lgan ko'chalari bo'ylab alohida avtobus yo'laklarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Buni "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" respublika jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish mumkin.

Ikkinchidan, shahardagi mavjud 198 ta avtobus bekatini (99 tasi xususiy tadbirkorlarga tegishli) tartibga solish va kelgusida quriladigan yangi avtobus bekatlarida savdo nuqtalarini joylashtirish sharti bilan xususiy tadbirkorlarga ajratish choralari ko'rish kerak.

Sessiyada 2023-yil III chorak yakunlari bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarini tasdiqlash hamda Kattaqo'rg'on shahri, Kattaqo'rg'on va Nurobod tumanlarining mavjud ma'muriy-hududiy chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masalalar ham ko'rib chiqildi.

Deputatlar viloyatda ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari miqdorini belgilash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqib, ma'qulladilar.

Unga ko'ra, viloyatimizda ichimlik suvi uchun tariflar miqdori aholi uchun (1 metr kubga) - 2500 so'm, budjet tashkilotlari va ulgurji iste'molchilar uchun (1 metr kubga) - 5700 (QQSsiz) so'm. Oqova suv aholi uchun (1 metr kubga) - 1600 so'm, budjet tashkilotlari va ulgurji iste'molchilar uchun (1 metr kubga) - 4300 (QQSsiz) so'm etib belgilanmoqda.

Shuningdek, sessiya davomida viloyat hokimligining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish, jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yilishiga ruxsat berish, Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi foydalanilmasdan turgan "Asfalt-beton ishlab chiqarish sexi" bino va inshootlarini auktsion savdolariga chiqarish to'g'risidagi va boshqa masalalar ko'rib chiqilib, Kengash qarorlari qabul qilindi.



SAMARQAND TURIZM AKADEMIYASI TASHKIL ETILDI

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida Global ta'lim forumi o'tkazildi.

Tadbirda 140 davlatdan kelgan delegatlar, turizm vazirlari va turizm ma'muriyatlari rahbarlari, O'zbekiston ta'lim sohasi mas'ullari va oliy o'quv yurtlari rahbarlari ishtirok etdi.

Forum avvalida O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektori Aziz Abduhakimov, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova, Butunjahon turizm tashkiloti Bosh kotibi Zurab Pololikashvili so'zga chiqdi.

- 2016-yilda turizmga yo'naltirilgan ilk islohotlar boshlanganidan buyon O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish va dunyoga ochilishda sezilarli yutuqlarga erishdi, - dedi A.Abdurahimov. - Bu jarayonda soha uchun kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. So'nggi uch yilda ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, talabalar soni esa 4100 nafardan 11500 nafarga ko'paydi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2018-yilda Samarqand shahrida tashkil etilgan «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universitetida logistika, ekskursiya, tarjima, arxeologiya, ijodiy industriya, madaniy meros, gastronomiya va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berilmoqda. Bizda 20 dan ortiq xorijlik o'qituvchilar bo'lib, ular mahalliy xodimlar tajribasini oshirishga va dasturlarimizga global nuqtai nazarni singdirishga hissa qo'shadilar. Universitet qisqa vaqt ichida mamlakatimizdagi

yetakchi turizm ta'lim muassasalari-dan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning natijalari haqida so'z yuritib, bolalar turizmiga ham alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi, - dedi H.Umarova. - Shu sababli bolalikdanoq o'quvchilarimizda ushbu soha haqida tushuncha hosil qilish, ularning qiziqishlarini oshirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Vazirlik tizimida Samarqand va Naman-gan viloyatlarida bolalar sayyohlik bazalari faoliyat ko'rsatmoqda. Endilikda Samarqanddagi tanlab olingan 20 ta maktabda tajriba sifatida turizm ta'limi soatlarini yo'lga qo'yimoqchimiz.

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh kotibi Zurab Pololikashvili ayni paytda dunyo miqyosida sayyohlik jadal rivojlanayotganini qayd etib, bu jarayonda soha uchun malakali kadrlarga ehtiyoj oshib borayotganini ta'kidladi.

Forumdagi turizm sanoati kelajagini shakllantirishda ta'lim dasturlarining strategiyasi va roli, shuningdek, bu boradagi maqsadlar, qarashlar va amalga oshirilgan ish-

lar haqida ma'lumot berildi. Turizm sohasida hozirgi va kelajak avlodlar uchun innovatsiyalar va ta'limni rag'batlantiruvchi siyosat masalalari muhokama qilindi.

Forum doirasida 2023-yilning eng yaxshi turizm qishloqlarini taqdirlash marosimi ham o'tkazildi.

Dunyoning bir qator qishloqlari qatorida mamlakatimizdan Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Sentob qishlog'i e'tirof etildi. Joriy yilda rasman turizm qishlog'i maqomi berilgan Sentob uch ming yillik tarixiga ega.

- Qishlog'imizning musaffo va go'zal tabiati, boy tarixi doim mehmonlarni o'ziga chorlab keladi, - deydi Nurota tumanidagi Sentob mahallasi raisi Murod Mirzayev. - Jumladan, bir necha asrlik tarixga ega Sentob qo'rg'oni, 1640 metr balandlikdagi tog' ustidagi ko'l, sharsharalar, o'ndan ortiq muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar qishlog'imiz ko'rki hisoblanadi. Bugungi kunda qishlog'imizda o'ttizdan ortiq oilaviy mehmon uylari va xostellar bor. O'tgan yil 22 milliard so'm mablag' sarflanib, qishloq infratuzilmasi yaxshilandi. Yaratilgan imkoniyatlar tufayli yil boshidan buyon 80 mingdan ortiq mahalliy, uch mingga yaqin xorijlik sayyohga xizmat ko'rsatdik.

Xalqaro forum qatnashchilari 20-oktabr kuni Samarqand shahrida yangi tashkil etilgan Turizm akademiyasi ochilish marosimida ishtirok etdi hamda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti faoliyati bilan yaqindan tanishdi.



ONA TILIM O'LMAYDI

Notiq dedi:

«Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo'qolur dunyoda,
Bir til qolur dunyoda».
«Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!»
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.
Kim darg'azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.
«Va'zingni qo'y, birodar,
Sen aytganing bo'lmaydi».
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

— Hey, bu qanday aqida! —
Qo'lida tabarruk jom,
Go'zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.
Ehtirosli, otashdil
Beranje so'rdi nolon:
— Nahotki, farangi til
Yo'qolgusi bir zamon!
Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
— Kim qasd etib tig' urdi
Ona tilim joniga!
Fuzuliy yondi:
— Ozar

Tili guldek so'lmaydi.
Barcha dedi barobar:
«Ona tilimo'lmaydi».
Kamalakdek rango-rang
Bo'lsin deb san'at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.
Beqadr bo'lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo'qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!
«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o'tga tutashdi.
Bir sado jahon bo'ylab
Taraldi, tog'lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o'lmaydi!

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri.

4-sahifaga qarang >>>

“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” – GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:

- Samarqand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchilardan bo'lib yoritamiz;
- ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
- eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!

Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!

**“ZARAFSHON” gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:**

- **640 ming so'm** (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- **768 ming so'm** (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**“САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК” gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:**

- **468 ming so'm** (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- **561 ming 600 so'm** (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).



↓ **Kun mavzusi**

YANGI UYLAR

ESKICHA TIZIMDA ISITILADI

Sovuq kunlar boshlanishi bilan uyimizni qanday qilib issiq saqlash mumkinligi to'g'risida bosh qotiramiz. Tabiiy gaz bo'lmagan hududlarda ko'mir yoki o'tin g'amlash boshlanadi. Xo'sh, ko'p qavatli uylarda-chi? Aholi sovuqda qanday kun kechiradi?

Hozirda viloyatimizda 812,4 mingta xonadon gazlashgan bo'lib, ularning 312,9 mingtasi tabiiy gaz va 491,7 mingdan ortig'i suyuqlashtirilgan gaz bilan ta'minlangan. 319 mingta iste'molchi xonadonida ASKUG, ya'ni tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilgan.

- Joriy yildan boshlab yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarni isitishda quruvchilarga yangi talablar qo'yiladi, - deydi "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali bosh muhandisi Vahob Halimov. - Endi uylar shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ikki konturli pechlar orqali emas, balki markazlashgan kichik qozonxonalar orqali isitiladi. Bir nechta ko'p qavatli uyga xizmat ko'rsatadigan umumiy qozonxonalar faoliyati tiklanadi. Chunki alohida isitish tizimi soatiga 2,7 kub metr tabiiy gaz sarflasa, markazlashganda bu me'yor ancha kam bo'ladi.

Prezidentimizning 2019-yil 2-dekabrda "Issiqlik ta'minoti tizimini takomillashtirish va issiqlik ta'minoti korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2021-yilda Samarqand shahridagi RK-1 markaziy qozonxonasini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish loyhasini amalga oshirish ishlari boshlangan edi. Ayni paytda mazkur qozonxonada qurilish va modernizatsiya ishlari davom etmoqda.

- Shahrimizning Rudakiy ko'chasi 96-uyda joylashgan "RK-1" markaziy qozonxonasini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish ishlari "Elit Grand" MChJ quruvchilari tomonidan amalga oshirilmoqda, - deydi viloyat "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi bosh muhandisi Jamoliddin Usmonov. - Qozonxonada yangi (21 MWt)li, 3 ta avtomatik tizimli qozon o'rnatildi. Ko'p qavatli uylarga 95 ta issiqlik tarqatish punktlari, 80 ta o'tkazish tarmoqlari hamda 15,4 kilometr issiqlik tarmoq quvurlarini yangilash ishlari amalga

oshirilmogda. Barcha ishlar yakunlangach, hududdagi 93 ta ko'p xonadonli uy-joyni isitish imkoni paydo bo'ladi.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filialidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, RK-1 qozonxonasiga 3 kilometr-dan ziyod quvur tortib kelingan bo'lib, kuz-qish mavsumi boshlangunga qadar montaj ishlari yakunlanib, tabiiy gaz berish boshlanadi.

- Samarqand shahridagi 1209 ta ko'p qavatli uyni 21 tasi lokal qozonxona, 265 tasi ikki konturli hamda 923 tasida esa konditsioner va elektr pechlar yordamida isitib kelinmogda, - deydi viloyat qurilish va uy-joy komunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi bo'lim boshlig'i Abror Saidmurodov. - Prezidentimizning topshiriqlariga binoan viloyatimiz hududida endi qurilayotgan barcha ko'p qavatli uylar faqat qozonxonalar yordamida markazlashgan holda isitiladi. Ya'ni, bunyod etilayotgan uy-joylardagi xonadonlar soniga qarab, uylar yonida kichik qozonxonalar quriladi. Bu esa ham tabiiy gazni, ham elektr energiyasini iqtisod qilishga yordam beradi.

Uch yil ilgari Jahon banki tomonidan 30 million dollar miqdorida mablag' ajratilib, Samarqand shahrining 54 mingdan ziyod aholi istiqomat qiluvchi Sug'diyona, Sartepa massivlari, shuningdek, kichik tumanda joylashgan 381 ta ko'p qavatli uydagi 22620 ta xonadon hamda 22 ta ijtimoiy soha obyektining isitish tizimi hamda issiq suv tarmoqlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan edi.

Hozirgi kunda ushbu markaziy qozonxonada qurilish ishlari boshlab yuborilgan. Quruvchilar tomonidan obyektga 3 ta qozon o'rnatilib, 2 ta 30 MWt va 1 ta 40 MWtlik qozonxona quriladi. Ko'p qavatli uylarda 460 ta issiqlik tarqatish punktlari o'rnatilib, 39,4 kilometr tarmoq tortiladi. Qozonxona 2024-yil oxirigacha ishga tushiriladi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Ko'ngildan ko'chgan obodlik

"Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra", deb bejiz aytilmagan. Rayimjon aka Turg'unov ham ko'p qatori dunyo kezgan insonlardan.

Jizzax viloyatining G'allaorol tumani-da tug'ilib voyaga yetgan Rayimjon aka ko'p yillar davomida davlat tashkilotlarida mas'uliyatli lavozimlarda ishlab, nafaqaga chiqdi. O'tgan yillar davomida turmush o'rtog'i Dilbar opa bilan to'rt o'g'il va bir qizni tarbiyaladi. Ayni paytda ziyoli oilada tarbiya topgan farzandlar ham yurtimizning ravnaqi yo'lidagi ota-onalari singari samarali mehnat qilmoqda.

- Yaratganga shukur, rizqim butun bo'lib, baxtli hayot kechirdim, - deydi muborak 83 yoshni qarshilayotgan Rayimjon bobo. - Farzandlarimning hammasi o'qimishli, oilali, tinch-totuv yashaydi. Doim yurtni obod qilishda o'z hissamni qo'shishni niyat qilar edim. Niyatim xolis ekan. Bundan o'n-o'n besh yillar avval Bulung'ur tumaniga kirishdagi Samarqand - Toshkent katta avtomagistral yo'li chetida e'tibordan chetda qolib, chiqindixonaga aylanayotgan tashlandiq maydonni obod qildim.

Farzandlariga bosh bo'lib, shu yerda "Ismatillo savdo servis" MChJga asos solindi va avtomobillarga yonilg'i quyish shaxobchasi, shuningdek, yo'lovchilar uchun har tomonlama qulaylikka ega bo'lgan ikki qavatli mehmonxona qurildi. Ayni paytda mehmonxona yonidan oshxona qurilmoqda.



- Rayimjon aka jonkuyar, bag'rikeng, yangilikka intiluvchi inson, - deydi tuman nuironiyalar kengashi raisi Ochil Ahmedov. - Yurtimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan yangiliklarni kuzatib boradi. Tadbirkor Mustaqilligimizning 32 yillik bayrami munosabati bilan tumanimiz markazi va qishloqlaridagi nuironiy bemorlar holidan xabar olib, ularga sovg'alar ulashdi. Shuningdek, bir nafar nogironligi bor fuqaroga nogironlik aravachasi olib berdi. Eng muhimi, Rayimjon aka tashabbusi bilan ishga tushirilgan "Ismatillo savdo servis" MChJga qarashli savdo majmuasida ayni paytda 10 nafardan ortiq aholi ish bilan band.

Rabbim HOTAMOV.

PAYARIQDA SHAMOL ELEKTR STANSIYASI QURILADI

↓ **Xitoy safaridan so'ng**

Shensi provinsiyasining kambag'allikni qisqartirish, sanoatni rivojlantirish borasidagi tajribasini o'rganish maqsadida 19-23-sentabr kunlari biz, Payariq va Qo'shrabot tumanlari rahbarlari hamda tadbirkorlar Xitoyda bo'ldik.

Biz o'zimizning murojaatimizga asoslangan holda tanlangan obyektlarda bo'ldik. "Aqli" issiqxonalar, uzumzorlar, anjirzorlar-ni ko'zdan kechirdik. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar bilan tanishdik.

Tumanimizda baliqchilikni rivojlantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, yiliga 10 ming tonnadan ortiq mayiz, 10 ming tonnadan ziyod mosh va 35 ming tonna paxta yetishtirish haqida ma'lumot berdik. Qir-adirli hududlarda shamol elektr stansiyasini qurish, uzumzorlar tashkil etish, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining filiali uchun ajratilgan 60 gektarlik yer maydoni zahirasi, shuningdek, Imom Buxoriy majmuasining qayta qurilishi natijasida Xo'ja Ismoil va Choshtepa mahallalarida yaratilayotgan turizm imkoniyatlari to'g'risida fikrlashdik.

Shuning natijasida bir qator bitim va memorandumlar imzolandi. Jumladan, Do'stlik mahallasi hududida shamol elektr stansiyasi qurishni rejalashtirdik. Yaqinda xitoylik tadbirkorlar kelib, hudud imkoniyatlarini o'rgandi va yuqori tashkilotlarga hujjatlar taqdim etildi. Eng katta muammolarimizdan biri - elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladigan loyiha uchun dastlabki qadamlar qo'yildi.

Shu paytgacha dehqonlar ekin maydonlarini tuman hududidan oqib o'tuvchi kanallardan yaroqlik muddatini o'tab bo'lgan suv nasoslari orqali sug'orib kelayotgan edi. Endilikda ular o'rnini energotejamkor zamonaviy suv nasoslari egallaydi.



Ular ni hududlarda o'rnatiladigan quyosh panellari elektr energiyasi bilan ta'minlaydi.

Xitoyliklar mosh sotib olishga katta qiziqish bildirdi. Yiliga biz yetishtiradigan 10 ming tonna emas, qancha ko'p bo'lsa, shuncha qabul qilishlari mumkinligini aytishdi. Ikkinchi ekin sifatida yetishtiriladigan bu mahsulotni kelgusi yillarda ko'proq maydonga ekish va qadoqlab, eksport qilish bo'yicha rejalar tuzildi.

Paxta masalasiga keladigan bo'lsak, shu paytgacha qadar tumanimizda bu mahsulotni qayta ishlashga deyarli e'tibor berilmagan. Xitoylik tadbirkor bilan hamkorlikda paxtani qayta ishlash bo'yicha yirik loyihani amalga oshirish uchun kelishuvga erishdik.

Shu va boshqa loyihalarni amalga oshirish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish, kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush farovonligini yaxshilash, umuman, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini keskin oshirish maqsad qilingan.

Isroil JABBOROV,
Payariq tumani hokimi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson, xalq, millat va jamiyat farovonligiga qaratilganligi bilan muhim hisoblanadi. Bunday davlat fuqarolik xizmatida kadrlar masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Konstitutsiyamizning 37-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar.

Davlat fuqarolik xizmatida

kadrlarni tanlash va "o'stirish"da hali qilinadigan ishlar ko'p

Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklavlar qonun bilan belgilanadi."

Rost, oxirgi 3-4 yilda kadrlar siyosatida yaxshigina tizim shakllantirildi. Misol uchun, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi ayrim davlat organlarining "tirikchilik manbai"ga aylanib qolgan vakant lavozimlarini "tortib olib", ularga ochiq tanlov tashkil qilyapti.



lavozimlarga kadrlar zaxirasini shakllantirish, yuritish va ularni rivojlantirish yagona elektron tizim orqali amalga oshirilmoqda.

Aniqrog' aytganda, samaradorligi yuqori, o'z ustida ishlayotgan, test va psixologik sinovlarda yaxshi natija ko'rsatgan kadrlar zaxiraga olinayapti. Misol uchun, bir boshqarma boshlig'i salohiyatli kadrlar rezerviga kirgandan so'ng yuqori KPI, ya'ni samarali faoliyati natijasida tuman hokimi etib tayinlandi. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi uni o'z holicha qoldirmaydi, ekspress-treninglar orqali yangi jamoasiga tezroq kirishishga ko'maklashadi.

Albatta, bu ishlar hali boshlanishi. Lekin qilinadigan ishlar ham undan oz emas. Asosiysi, davlat xizmatiga ishga olishda tanlovning saralash jarayonlarini ham takomillashtirish, ushbu bosqichda xolislik va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan takliflar inobatga olinayapti. Zotan, bu ishni amalga oshiruvchi komissiya faoliyatini barcha tashkilotlarda ham qoniqarli deb bo'lmaydi.

Komissiya tarkibida davlat organining mutasaddilari a'zo sifatida ishtirok etadi. Ayni paytda vakant lavozimga nomzod test jarayonlaridan o'tgani bilan keyingi bosqichda ayni ularning suhbatiga ro'baru bo'ladi. Shu bois komissiyalar faoliyatida jamoatchilik vakilining ishtirokini ta'minlash kerak. Chunki komissiyada jamoatchilik vakilining ishtiroki xolislikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qonunchiligimizda komissiyaning mas'uligi va javobgarligi bilan bog'liq me'yorlar belgilanmagan. Demak, komissiya bilan bog'liq me'yorlarni belgilash, uning faoliyatida ittifoqni ta'minlash, ochiqlik, xolislik va shaffoflikni ta'minlash choralari ko'rish zarur.

Davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari yo'lga qo'yilishi kerak. Bu albatta, rahbarlikka munosiblarni zaxiraga olishdan farqli shaklda yuritilishi maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda yana bir gap. Ayni paytda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkilotlarda muxassislarni belgilangan talab asosida ishga olingan bo'yicha monitoringlar o'tkazaypti. Ayrim hollarda xatoga yo'l qo'yilgani aniqlanib, uni bartaraf etish choralari ko'rilmogda. Bu yaxshi, lekin jarayonda muntazamlik bo'lishi, aniq muddatlar, misol uchun, har chorak, balki boshlanishiga har yarim yilda monitoring yo'lga qo'yilishi lozim.

Shaxriyor XOLBOYEV,
SamDU doktranti.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan Oqdaryo tuma-ni elektr taʼminoti tizimini kuz-qish mavsumiga tayyorlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarni oʻrganish maqsadida tashkil etilgan press-turda asosiy savol shu boʻldi.

OQDARYOLIKLAR QISHDA ELEKTRSIZ QOLMAYDIMI?

– Buning uchun imkoniyatimiz darajasida bar-cha choralarni koʻrdik, - deydi tuman elektr taʼmi-noti korxonasi rahbari Shavkat Xoʻjanov. – Xusu-san, kuz-qish mavsumiga hozirlik koʻrish boʻyicha belgilangan barcha tadbirlar nihoyasiga yetkazildi. Jarayonda 172 ta transformator punkti joriy va mukammal taʼmirlanib, 344 kilometr elektr uzatish simlari tortildi. Rejadan tashqari 5 ta manzilga yangi transformator punkti oʻrnatildi hamda 10 kilometr tarmoq tortildi. Tizimdagi avariya holat-larini tezkor bartaraf etish uchun 4 ta navbatchi brigada hamda 2 ta kunduzgi brigada tashkil etil-di. Shuni aytishim mumkinki, bu yilgi mavsumga har doimgidan ham yaxshiroq tayyorgarlik koʻrildi. Viloyat hokimligi tomonidan barcha zarur texnika va vositalar berilgan. Nasib boʻlsa, xalqimiz oldida yuzimiz yorugʻ boʻladi.

Jurnalistlar dastlab Loyish shaharchasidagi Loyish 110/35/10 kW nimstansiyasi faoliyati bilan tanishtirildi. Maʼlumotlarga koʻra, joriy yil stan-siyadagi ikkita 16 ming kWlik transformator dan biri 25 ming kWligiga almashtirilgan. Natijada isteʼmolchilarga yetkazib berilayotgan elektr ener-giyasi kuchlanishi yaxshilangan.

– Uyimizdagi chiroqlarni yoqsak, shamchiroq kabi zaif nur taratardi, - deydi Zarafshon mahal-lasida yashovchi Holbuvi aya. – Hozir binoyidek yonyapti. Oʻchishlar kamaygan. Ilgari tok kamli-gi uchun ishlamagan qurilmalarimiz ham ishlab ketdi.

Mavsumoldi tadbirlari rejasiga muvofiq, mazkur mahalladagi 100 ta xonadonni elektr energiyasi bilan taʼminlab kelayotgan transformator ham mukammal taʼmirlandi.

Tumanning Avazali mahallasida 70 ta xoʻja-lik uchun yangi transformator punkti qurilgan. Shuningdek, hududda 40 ta temir-beton ustun oʻrnatilib, 1600 metr elektr uzatish kabeli tortil-gan. Aholi bilan muloqotimizda ular rekonstruk-siya ishlaridan soʻng elektr energiyasi taʼminoti hamda sifati yaxshilanganligini taʼkidlashdi.

Press-tur doirasida tumanning eng olis hududi hisoblangan Yangiqoʻrgʻon mahallasidagi Boy-boʻta qishlogʻida ham boʻldik. Hudud masʼuli Sherzod Primovga koʻra, qishloqqa “Obod mahal-la” dasturi asosida 152 ta temir-beton ustun olib kelinib, hozirgacha 85 tasi oʻrnatilgan hamda 3 kilometr elektr uzatish kabeli tortilgan.

“InnoWeek-2023” – INNOVATSION GʻOYALAR HAFTALIGI

Haftalikda viloyatdagi 15 dan ortiq davlat va xususiy oliy taʼlim muassasalari olimlari, kasb-hunar maktablari jamoasi, ilmiy tadqiqotchi yoshlar va viloyat ishbilarmonlari ishtirok etdi. Ular ishtiroki-da turli uchrashuv va seminarlar, startap loyiha mualliflari va loyiha rahbarlarining master klaslari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, turli xil tor va keng doiradagi uchrashuvlar, shartnoma va memoran-dumlar imzolandi hamda innovatsion mahsulotlar koʻrgazmalari tashkil etildi.

“InnoWeek-2023” haftaligi doirasida Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari tomonidan 18 ta startap loyihalar taqdimoti qilindi va hakamlar hayʼati tomonidan eng yaxshi 3 ta loyiha saralab olindi. Jum-ladan, 1-oʻrinni “Texnomuxlis.uz” loyihasi uchun Anvar Shernazarov, 2-oʻrinni “Framing” loyihasi boʻyicha Umida Nabiyeva, 3-oʻrinni “PerfestService” loyihasi uchun Sevinch Ochilova va Noila Yuldasheva qoʻlga kiritdi. Gʻoliblar diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

“InnoWeek-2023” haftaligi doirasida SamDU Urgut filiali professor-oʻqituvchilari va talabalari tomonidan “Smart mahalla” elektron dasturi, “Aqlli garaj”, “Robot qoʻl”, “Gaz isini sezuvchi detektor”, “Havoni tozalovchi moslama” va “Harakatlanuvchi quyosh paneli” kabi bir qancha innovatsion loyihalar namoyish etildi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti haftalik doirasida “Antioksidantlarga boy noʻxot uni”, “Zardobdan sariyogʻ ishlab chiqarish”, “Mozorelle pishlogʻi”, “Oqova suvlarni tozalashga moslashgan suv oʻtlarini koʻpaytirish”, “Azolla va



riyaska baliqlar uchun toʻyimli ozuqa” kabi loyihalar bilan qatnashdi.

Shuningdek, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti Axborot texnologiyalari markazi sunʼiy intellekt yordamida dasturlangan turli robototexnika loyihalarini namoyish etdi.

Mahzuna ASHUROVA,
SamDCHTI talabasi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Samarqand davlat chet tillar instituti qoshida tashkil etilgan Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash uchun QABUL EʼLON QILADI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-yan-vardagi “Xalq taʼlimi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4963-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq taʼlimi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-sonli qarorlari, Xalq taʼlimi vazirining 2023-yil 20-yanvardagi “Xalq taʼlimi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimini joriy etish toʻgʻrisida”gi 18-sonli buyrugʻida belgilangan vazi-falar hamda Samarqand davlat chet tillar instituti kuzatuv

kengashi tomonidan 2022-yil 22-noyabrda maʼqullangan 5-sonli bayonnomaga, taʼlimga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq maktabgacha va maktab taʼlimi yoʻna-lishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etilgan.

Shu munosabat bilan maktabgacha va maktab taʼlimi tizimi-da faoliyat olib borayotgan pedagog hamda nopedagog mu-taxassislarni “Ingliz tili” va “Rus tili” yoʻnalishi boʻyicha tashkil etilgan qayta tayyorlash kurslarida tahsil olishlari uchun qabul boshlanganini eʼlon qilamiz. Kurslar 972 soatga moʻljallangan boʻlib ananaviy va masofaviy shakilda olib boriladi.

Xalq taʼlimi tizimidagi oliy maʼlumotli pedagog kadrlarni turdosh mutaxassislikka kasbiy qayta tayyorlashning namunaviy yoʻnalishlari:

Dars berish huquqi beriladigan kasbiy qayta tayyorlash yoʻnalishlari	Diplom boʻyicha mutaxassisligi, akademik daraja	
	Oliy maʼlumotli quyidagi mutaxassislar	Bakalavr va magistrlar
Chet tili (tillar boʻyicha) fanini oʻqitish huquqini berish boʻyicha kasbiy qayta tayyorlash.	1. Ona tili va adabiyoti oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	1. Ona tili va adabiyoti oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.
	2. Xorijiy til va adabiyoti oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	2. Xorijiy til va adabiyoti oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.
	3. Rus tili (oʻzga tili guruhlar uchun). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	3. Rus tili (oʻzga tili guruhlar uchun). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.
	4. Filologiya va tillarni oʻqitish (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	4. Filologiya va tillarni oʻqitish (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.
	5. Davlat tili (oʻzga tili guruhlarda) oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	5. Davlat tili (oʻzga tili guruhlarda) oʻqituvchisi (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.

Xalq taʼlimi tizimidagi ofiy maʼlumotli nopedagog kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlashning namunaviy yoʻnalishlari:

Pedagogik faoliyat yuritish huquqi beriladigan fan	Diplom boʻyicha mutaxassisligi, akademik daraja	
	Oliy maʼlumotli mutaxassislar	Bakalavrlar va magistrlar
Chet tili fani oʻqituvchisi (tillar boʻyicha).		1. Xalqaro munosabatlar (sohalar boʻyicha). 2. Xalqaro jurnalistika. Izoh: tegishli tilda erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.

Xalq taʼlimi tizimidagi ofiy maʼlumotli nopedagog kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlashning namunaviy yoʻnalishlari:

Pedagogik faoliyat yuritish huquqi beriladigan qayta tayyorlash yoʻnalishlari	Diplom boʻyicha mutaxassisligi, akademik daraja	
	Oliy maʼlumotli mutaxassislar	Bakalavrlar va magistrlar
Chet tili (tillar boʻyicha)	1. Tarjimonlik (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart.	1. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar boʻyicha). 2. Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik taʼminoti (tillar boʻyicha).
	2. Tarjimon-referent.	3. Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar boʻyicha). Izoh: tegishli tilida erkin soʻzlasha olish darajasiga ega boʻlishlari shart. 4. Tarjimon-referent.

Bizning manzil: Samarqand shahri Boʻstonsaroy koʻchasi, 93-uy.
Murojaat uchun telefonlar: +998998046443 (https://t.me/Yarbekov_Ulugbek), +998975794818 (<https://t.me/RustamAsadov>) +998993811358 (<https://t.me/jurabekmuqumov>)
Savol va takliflaringizni: (<https://t.me/samdchtimalakaoshirishqaytatayyo>) telegram guruhiga yoʻllashingiz mumkin.
Markazimizning rasmiy kanalini kuzatib boring: <https://t.me/samdchtimalakaoshirishqaytatayyo>

ICHIMLIK SUVI VA OQOVA NARXI OSHADI

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 20-oktabrdagi qarori bilan viloyatimizda ichimlik suvi va oqova xizmatlari tariffining yangi miqdori belgilandi.

Unga koʻra, ichimlik suvi:

- aholi uchun 1 metr kub – 2500 soʻm;
- byudjet tashkilotlari va ulgurji isteʼmolchilar uchun 1 metr kub – 5700 soʻm (QQSsiz).

Oqova:

- aholi uchun 1 metr kub – 1600 soʻm;
- byudjet tashkilotlari va ulgurji isteʼmolchilar uchun 1 metr kub – 4300 soʻm (QQSsiz) etib belgilandi.

“Samarqand suv taʼminoti” MCHJ.

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Payariq tumanidagi “CHELAK AGRO-SERVICE MTP” masʼuliyati cheklangan jamiyati (STIR: 305177194) yagona ishtirokchisining 2023-yil 13-oktabrdagi 2-sonli qaroriga asosan, “SAMARQAND VILOYAT AGROSERVIS MTP” masʼuliyati cheklangan jamiyatiga qoʻshilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha daʼvolar 2023-yil 25-oktabrga-cha qabul qilinadi.

Manzil: Payariq tumani Chelak shahri, “Bunyodkor” MFY, 55-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida

marhum Yusupov Quldosh Tuxtayev-ichga (2021-yil 16-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Azizov Jahongir II-homovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy koʻchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Igamova Munavar Mustafayevnaga (2023-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosa-

bat bilan merosxoʻrlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 51-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Toshmurodova Majjuda Abdikobilovnaga (2020-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlar-ni Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod koʻchasi, 35-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Musurmanov Kuchkarga (2023-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod koʻchasi, 35-uy, 3-xona.

XX asr boshida: o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is‘hoqxon Ibrat “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero o‘z tiliga sadoqat – bu Vataniy ishidr”, deganda ona tiliga, davlat tiliga bo‘lgan hurmat Vatanga bo‘lgan hurmat bilan teng ekanligini ta’kidlaydi.

DAVLAT TILI HIMOYAGA MUHTOJMI?

Dunyoda barcha tillarga ham davlat tili degan maqom nasib etmagan. Aksariyat tillar o‘z hududida ma’lum millat-largagina uy-ro‘zg‘or tili sifatida xizmat qiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzidagi yetti ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega.

Davlat tili muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijro va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilan-gan tildir. Odatda, ko‘p millatli mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Kanada, Shveysariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo‘yilgan. Davlatlarning ko‘pchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi. Misol uchun, Shveysariyada konstitutsiyaga bi-noan nemis, fransuz, italyan tillari rasmiy til, nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari esa davlat tili sanaladi.

Demokratiya nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, aslida davlat tili maqomi quyidagi me‘yorlarga javob berish lozim:

Tarixan shakllangan hamda aholisining asosiy qismi mu-loqot qiladigan mustaqil davlatlarning tillari davlat tili ma-qomiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Amerika, Angliya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Shvetsiya, Turkiya kabi ko‘pgina mamlakat-larda hech qaysi til davlat tili, deb e‘lon qilinmagan. Bunga ehtiyoj ham yo‘q. Davlat tili davlat himoyasiga muhtoj emas. Shusiz ham bu davlatlarda boshqa tillar davlat tili maqomiga chiqa olmaydi. Biroq qadimdan mazkur davlatlarda mam-lakatning asosiy qismini tashkil qilgan aholining tili davlat tili, rasmiy til deb tan olingan.

E‘tibor qiling, agar O‘zbekistonga kelgan ingliz yoki yapon sayyohlari o‘zbek tilida gaplashsa, beixtiyor hayratga tushamiz va buning uchun ularga chuqur ehtiromimizni izhor qilamiz. Mabodo, o‘zbek yoki qozoq Angliya yoki Amerikaga borsa, ingliz tilida xuddi inglizlardek gaplashsa ham, hech kim ularga e‘tibor qilmaydi, bu vaziyat odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Mana shu holatning o‘zi ingliz tilining davlat himoyasiga muhtoj emasligini ko‘rsatadi.

Demak, davlat tili mustaqil davlatning muhim belgisidir. Til davlat himoyasiga muhtoj bo‘lganda, undan foydala-nishni barqarorlashtirishga ehtiyoj sezilgandagina, uning rivoji uchun shart-sharoit lozim deb topilgandagina unga qonun yo‘li bilan davlat tili maqomi beriladi. Tilga davlat tili nufuzining berilishi mustaqil davlatning suveren huquqi hisoblanadi.

Davlat tiliga bo‘lgan e‘tibor va uning ahamiyatlilik dara-jasini xorijiy davlatlar qonunchiligi misolida quyidagi tartibda kuzatish mumkin:

Rossiyada “Davlat tili to‘g‘risida”gi Federal qonunga ko‘ra, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, Rossiya hududida faoliyat yurituvchi har qanday tashkilot davlat tili (rus tili) da ish yuritishi, tashkilotni nomlashda ham davlat tilidan foydalanishi belgilangan. Rossiyada 190 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Qonunni buzish tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi. Germaniyada “Ma‘muriy amaliyotlar to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, ma‘muriy amaliyotlar uchun rasmiy til sifati-da nemis tili belgilangan. Agar mas‘ul idoraga nemis tilidan boshqa tilda murojaat qilinsa, organ darhol uning nemis til-iga tarjimasini talab qilishi kerak. Nemis tilidan boshqa tilda murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi. Irlandiyada davlat tili sifatida irland va ingliz tili qabul qilingan. Davlat organlarida davlat tillari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinayotganini tekshirish bo‘yicha alohida organ mavjud. Agar davlat organi ushbu tashkilotga hujjatlarni taqdim qilmasa, ular bilan ham-korlik qilmasa, ushbu organ mansabdor shaxsi uchun 2000 yevrogacha jarima yoki 6 oy qamoq jazosi belgilangan. Bu tekshiruvlar natijasida til to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzil-

gani aniqlansa, davlat organi mansabdor shaxsi javobgarlik-ka tortilishi mumkin.

Fransiya konstitutsiyasida faqat fransuz tili davlat tili deb belgilangan. Tubon qonuniga ko‘ra, davlat tashkilotlari tomonidan ish yuritish istisnosiz fransuz tilida olib boriladi, terminlarning fransuzcha muqobili turganda, inglizchasi yoki boshqa tildagisini ishlatish taqiqlanadi. Fransiya aholisin-ing 51 foizi fransuz tilidan boshqa tilda gaplashadi. Qonun talablariga rioya qilmaganlik jismoniy shaxsga 700 yevro, yuridik shaxsga 3750 yevro jarima solinishiga sabab bo‘ladi, boshqa tilda peshlavhasi yoki yorlig‘i yozilgan mulk musoda-ra qilinishi ham mumkin. Gruziyada “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, davlat korxona va tashkilotlarida faqat gruzin tilida ish yuritiladi, zarurat tug‘ilsa, hujjatlar boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin, ammo bu tarjimalar rasmiy hujjat hisoblanmaydi. Ozarbayjon konstitutsiyasiga ko‘ra, davlat tili ozarbayjon tili hisoblanadi. Tashkilotlarda ish yuritish davlat tilida olib boriladi. Qonun talabiga rioya qilmaslik tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Turkiyada barcha yozishmalar, yozuv va hisob-kitoblar hech qanday istisnolarsiz turk tilida olib borilishi talab etiladi. Ushbu talabga rioya qilmaganlik ma‘muriy jarimaga sabab bo‘ladi. Turk yuridik shaxslari o‘rtasida tuzilgan turk tilida bo‘lmagan shartnomalar bekor qilinadi. Qatarda 2019-yilda qabul qilingan yangi qonunga ko‘ra, barcha davlat organ-lari va rasmiy hujjatlarda arab tilidan majburiy foydalaniladi. Qonun talablariga amal qilmaganlik uchun 50 ming qatar riali (14 ming AQSh dollari atrofida) miqdorida jarima belgil-angan.

O‘zbekistonda esa 2020-yil aprel oyida Adliya vazirli-gi tomonidan davlat tilida ish yuritishni to‘la ta‘minlash maqsadida mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilash-ni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, 2021-yil 21-apreldan boshlab amaldagi O‘zbekiston Res-publikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 42-moddasida “Fuqarolarning tarbiya va ta‘lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalan-ishda to‘sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik” hamda “Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”, deya belgilangan-ligi bizning davlat tilimiz ham himoya qilinayotganidan darak beradi.

Ko‘plab mustaqil davlatlarda “davlat tili” qoidalariga amal qilmaslik qattiq jazolanadi va davlat tomonidan tartibga solib turiladi, lekin shuni ham unutmashimiz kerakki, davlat tiliga bo‘lgan munosabati qat‘iy, ko‘p asrlardan beri amal qilinadi-gan qadriyatlardек e‘zozlanadigan mamlakatlar ham ancha-gina. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, davlat tili himoyaga muhtojlik sezmaydigan rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishimiz o‘zimizga bog‘liq, negaki millatsevarlik, vatanpar-varlik, uning buyuk kelajagi uchun qayg‘urish azal-azaldan qon-qonimizga singib ketgan.

Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinu diyo-natimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi eng muhim vosita-dir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma‘naviy inqirozga yuz tutadi.

Anvar SOBIROV,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori.

Avval ona tili

Milliy til – xalqlar va millatlar-ning asosiy muloqot manbai. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalay-di, urf-odat, an‘ana va madani-yatlarni saqlaydi, avloddan-avlod-ga o‘tishini ta‘minlaydi.

Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushishi turgan gap. Tilni ardoqlash millatni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o‘z ifodasini topadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi amaliy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning tasdig‘ini o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini oshirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar misolida ko‘rish mum-kin.

2020-yil 20-oktabrda davlatimiz rahba-rining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi. Ushbu farmonga muvofiq, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Unda 2025-yilgacha davlat maktabgacha ta‘lim tizimida o‘zbek tili guruhlar qamro-



Xorijlik talabalar o‘zbek tilini bilish borasida bellashdi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida tahsil olayotgan xorijlik talaba-yoshlarning o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida joriy yilning sentabr oyida “O‘zbek tili – qalbim tarjimoni” mavzusida res-publika ko‘rik-tanlovining universitet bosqichi o‘tkazildi.

Ko‘rik-tanlovning oliy ta‘lim muassasasi bosqichida ishtirokchilar o‘zi haqida 3-5 daqiqalik tanishtiruv video-lavhasi tayyorlash va O‘zbekiston tarixi, madaniyati, o‘zbek xalqi qadriyatlari, ijtimoiy hayoti-ga oid mavzularda esse yozish shartlari bo‘yicha bellashdi.

Ko‘rik-tanlovning natijasiga ko‘ra, universitet magistranti, afg‘onistonlik Farishta Qa-yumiy tanlovning mutlaq g‘olibi deb topildi va respublika bosqichiga yo‘llanma oldi.

Universitetda Rossiya, Hindiston, Belarus, Malayziya, Afg‘oniston, Turkmaniston, Tojikis-ton kabi davlatlardan kelib tahsil olayotgan talabalar o‘zbek tilini o‘rganish bilan birga milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni ham o‘rganmoqda.

Muhayyo ABBASOVA,
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi.

“Abdul” emas, Abdulloh, deng

Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘zim tushib qoldi – bir kishi yangi tug‘ilgan bolasiga “Yangi O‘zbekiston” deb ism qo‘yishga ruxsat be-rishmayotgani uchun janjallashyapti. “Far-zand meniki, nima ismni ravo ko‘rsam, shu bo‘ladi”, deb do‘q uryapti.

Ism qo‘yish ota-onaning o‘z farzandi oldidagi birin-chi majburiyatlaridan hisoblanadi. Buni ko‘pchilik yaxshi anglaydi va bolasiga ma‘no-mazmunli nom tanlaydi. Yoki oilaviy qadriyatlari, shajarasidan kelib chiqib, ism qo‘yadi. Yana kimlardir mashhur kishilarga, el o‘rtasidagi hurmatli insonlarga havas qilib, farzandiga ular nomini beradi. Buni ham to‘g‘ri tushunish kerak.

Ammo ba‘zan ayrim ota-onalar o‘z shaxsiy qiziqishlari, xobbilari asosida qo‘shiqchilar, kinoqahramonlar yoki fut-bolchilar ismini bolasiga qo‘yadi. Bu ism o‘z tili, millati, xalqi turmush tarziga mos bo‘lsa yaxshi, aksincha bo‘lsa-chi?

Xo‘sh, Jumong, Tayson, Messi, Maradona degan ismlarning mazmunini bilasizmi? Siz shu “qahramon”larga havas qilib, bolangizga ular nomini qo‘yibsiz, mayli. Ertaga bolangiz ulg‘ayib, ismidan uyalmaydimi? Buni to‘g‘ri qabul qiladimi?

FHDYO bo‘limlari xodimlari ham nima qilsin, ota-ona shu ismni ravo ko‘rsa, ularning qo‘lidan nima keladi. To‘g‘ri maslahat, tavsiya berar, ammo buni “qaysar” ota-ona qabul qiladimi?

Yana bir gap. Farzandga yaxshi ism qo‘yganingizdan keyin uni chala-yarim qilmay, to‘liq va go‘zal talaffuz qilish lozim. Afsus, ba‘zi oilalarda ismni qisqartirib chaqirishadi. Ya‘ni, Abdurahmonni “Abdi”, Abdullohnı “Abdul” deyishadi. Bu avvalo, ism egasiga nisabatan, qolaversa, ulug‘ nomlarga hurmatsizlik emasmi?

Husniddin XOLDOROV.

Ijodkor adabiy tilda gapirishi va yozishi shart

Bu gap viloyat Matbuot uyida O‘zbek tili bayrami arafasida “Adabiy tilimiz buguni va ertasi: muammo va yechim-lar” mavzusida tashkil etilgan davra suhbatida aytiladi.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi hamkorligida o‘tkazilgan tad-birda uyushma a‘zolari, tuman va shahar gaze-talari muharrirlari Samarqand davlat chet tillari institutining xalqaro jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi.

- Keyingi yillarda yurtimizda ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda, - dedi Oliy Majlis Senati a‘zosi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Farmon Toshev. - Nati-



jada o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro‘-e‘tibori oshdi. 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

bilan 21-oktabr yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” etib belgilandi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti Mardon Boltayev adabiy tilimizning butuni haqida to‘xtalar ekan, ijodkor adabiy tilda gapirishi va yozishi shart ekanligi-ga urg‘u berdi. Chunki ba‘zi hollarda jurnalist, boshlovchi, ijodkorlarning til qoidalariga amal qilmasligi kuzatilmoqda. Bu kabi xolatlarni ko‘proq televideniye va radioda ko‘rish, eshitish mumkin.

Shuningdek, olim o‘zbek tiliga asoslangan lotin yozuvidagi ayrim o‘zgarishlar va uni qo‘llash tarti-blarini aniq misollar orqali tushuntirib berdi.

Tadbir yakunida ikki nafar jurnalistga O‘zbeki-ston Jurnalistlar uyushmasiga a‘zolik to‘g‘risidagi guvohnoma topshirildi.

Husan ELTOYEV.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

